# SAMARQANDVILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2023-yil yanvar-noyabr holatiga

Viloyat statistika boshqarmasiga **2023-yilning yanvar-noyabr oylari davomida** jismoniy va yuridik shaxslardan 158 ta murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning 113 tasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib tushgan yozma murojaatlar, 42 tasi sayyor qabuldan hamda 3 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan murojaatlardir.

Jamidan 92 tasi elektron pochtali orqali, 24 tasi yozma ravishda hamda 42 tasi og‘zaki murojaatlardir.

# *MUROJAATLAR:*
# *(mazmun-mohiyat bo'yicha)*




Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlilga ko'ra, 22 tasi statistik ma'lumot so'ralgan, 50 tasi korxona faoliyati to'g'risida 16 tasi nafaqa hujjatlari to'g'risida so'ralgan, qolgan 70 tasi boshqa turdagi masalalar yuzasidan so'ralgan murojaatlardir.

# HUDUDLAR BO'YICHA TAQQOSLAMA TAHLILI (soni birlikda)




Viloyat statistika boshqarmasiga Samarqand shahridan 109 ta, 10 ta Samarqand tumanidan, 4 ta Ishtixon 3 ta Paxtachi, 8 ta Urgut, 3 ta Kattaqo'rg'on shahar, 5 ta Kattaqo'rg'on tumani 3 ta Qo'shrabot, 6 ta Payariq 3 ta, Toyloq, 3 ta Bulung'ur, 1 ta Nurobot tumanlaridan nisbatan ko'proq murojaatlar kelib tushgan.

# *MUROJAATLARNI KO‘RIB CHIQISH HOLATI*




Viloyat statistika boshqarmasiga kelib tushgan murojaatlarning barchasiga o‘z vaqtida chora ko‘rildi. Rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

# *TURLARI BO‘YICHA MUROJAATLAR*




Tahlillarga ko‘ra, murojaatlarning 32 tasi jismoniy shaxslar va 126 tasi yuridik shaxslarning murojaatlariga to‘g‘ri kelgan.

**Eslatib o‘tamiz:**

O‘z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog‘liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma’lumot olishni xohlaysizmi, quydagi

"Ishonch telefoni"

**(66) 235-58-95**

Pochta manzili - **www.samstat.uz**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi pm2.gov.uz orqali murojaat etishingiz mumkin.**

**Viloyat statistika boshqarmasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomini nazorat qilish bo‘limi

**Nashr uchun mas’ul:** **F. Sattarov**

(66)235-58-95